

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

# Zarafshon

2024-yil 14-dekabr, shanba,
143 (24.020)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz


**O‘zbek xalq maqoli**

Ayrilmagin elingdan,
quvvat ketar
belingdan.

# Nurobodda ikkita quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishi boshlandi



**Kecha Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida energetika sohasida yangi quvvatlarni ishga tushirish va navbatdagi loyihalar qurilishiga start berish marosimi bo‘lib o‘tdi.**

Videokonferens aloqa tarzida tashkil etilgan tadbirda viloyatimizning Nurobod tumanida umumiy quvvati 1000 megavatt bo‘lgan ikkita quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishiga ruxsat berildi.

Aholini va iqtisodiyot tarmoqlarini energiya resurslari bilan barqaror ta’minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish maqsadida Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasi investitsiyasi asosida amalga oshirilayotgan mazkur loyiha Nurobod tumanining Sazag‘on va Olg‘a massivlari hududida tashkil etilmoqda.

– Loyiha uchun qariyb 3 ming gektar yer maydoni ajratilmoqda, – deydi “ACWA Power” kompaniyasi vakili Shamshod Shukurov. – 1 milliard 807 million AQSh dollarilik loyiha quvvati 1000 megavatt (1 gegavatt) bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasi, 700 kilometr elektr havo uzatish tarmoqlari va 1000 megavatt elektr energiyasini saqlash tizimi qurilishini o‘z ichiga oladi. Quyosh fotoelektr stansiyasining bittasi Sazag‘onda (100 megavatt), ikkinchisi esa Olg‘ada (900 megavatt) quriladi. Loyihani amalga oshirish uchun 2023-yil 19-aprelda O‘zbekiston Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda “ACWA Power” kompaniyasi bilan investitsiya bitimi, ishlab chiqariladigan elektr energiyasini sotib olish bo‘yicha “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati bilan bitim imzolangan. Shu asosida 2023-yil 4-iyul kuni davlatimiz rahbarining ikkita qarori qabul qilingan.

Obyektlarni loyihalash va qurilish-montaj ishlari Hindistonning Larsen & Toubro va mahalliy kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi. Qurilish davrida 600-700 tagacha, obyektlar to‘liq ishga tushgandan so‘ng 30 ta doimiy ish o‘rni yaratilishi kutilmoqda.

– Bu kompaniyaning O‘zbekistondagi birinchi ishi hisoblanadi, – deydi Larsen & Toubro kompaniyasi vakili Konstantin Dugin. – Loyihaning naqafat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyodagi eng yirik loyihalardan biri ekanligini e’tiborga olib, juda katta mas’uliyatni his qilgan holda ish boshlayapmiz. Qurilish va stansiyalarni tarmoqqa ulash ishlari 2,5 yil davom etishi ko‘zda tutilgan. Biz bu davr ichida loyihada belgilangan barcha yumushlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirishni maqsad qilganmiz.

Ma’lumotlarga ko‘ra, loyihaning dastlabki quvvatlari 2026-yil yakuniga qadar tarmoqqa ulanib, 2027-yil to‘rtinchi choragida to‘liq ishga tushiriladi. Buning natijasida 2340 million kVt soat yoki 975 ming xonadonning bir yillik iste’moliga teng “yashil” energiya ishlab chiqariladi. 709 million metr kub tabiiy gazni tejash va 983 ming tonna zararli moddalarning atmosferaga chiqarilishining oldi olinadi.

Yangi obyektlar qurilishi boshlanishiga bag‘ishlangan tadbirda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev va faollar ishtirok etdi.

**Baxtiyor MUSTANOV.**

*Yurtimiz ko‘rki*

**O‘tgan yili Kattaqo‘rg‘on tumanidagi Cho‘yanchi, Oqdaryodagi Yangiqo‘rg‘on, Past Darg‘omdagi Olti Qahramon va Ishtixondagi Chag‘atoy mahallalarida “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlari asosida katta bunyodkorlik, obodonlashtirish tadbirlari amalga oshirilgan edi. Joriy yil boshida ham viloyatning “og‘ir” toifaga kiritilgan bir nechta mahallasi tanlab olinib, hudud infratuzilmasi, aholining yashash sharoitini yaxshilash borasida salmoqli ishlar qilindi.**

# Sharoit imkoniyat yaratadi

## Yoxud “Obod mahalla” odamlarga nima berdi?



O‘shanda viloyatimizga respublika ishchi guruhi kelib, mahallalarga “mahalla yettiligi”ning o‘zaro hamkorlikda xonadonbay, fuqarobay ishlashini tashkil qilishda amaliy va nazariy ko‘mak bergandi. Shuningdek, “og‘ir” toifadagi mahallalarni rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xarita”lari tuzilib, jarayonga barcha mas’ullar jalb qilindi.

Yil yakunlanoqda. Demak, dasturlar ijrosi ham. Biz esa va’da qilinganidek, yana mavzuga qaytib, Ishtixon tumanidagi Qiyot mahallasi misolida obod bo‘lgan hududdagi ijtimoiy muhit, aholining kayfiyati va hayot tarzini o‘rgandik.

Qiyot 9 ta qishloq, 1122 ta xonadondan iborat. 6330 nafar fuqaro istiqomat qiladigan bu mahalla Ishtixon tumaniga eltuvchi asosiy yo‘ldan bir oz ichkarida joylashgan. Ko‘p yillar e’tiborsiz qoldirilgan. Qishda loy, yozda chang, kechalari zimiston bo‘ladigan ko‘chalar, rivojlanmagan ifratuzilma, elektr energiyasidagi muntazam uzilishlar mahalliy aholining ham joniga tekkan edi. Bir yilga bormay, bu muammolarning asosiy qismiga barham berildi. Ko‘rimsiz mahalla namunaliga aylandi.

Hududga kirib kelarkanmiz, kayfiyatimiz yaxshilanib borayotganini payqadik. Payariqning Chelak shaharchasini Ishtixonning Mitan shaharchasi bilan bog‘laydigan asosiy yo‘ldagi o‘ydim-chuqurlardan keyin (ikki tumanni bog‘lovchi bu ahamiyatli ko‘chaga qachon e’tibor qaratiladi?) ravon, ikki yonida gullar ekilgan, obod ko‘chada yurish kishi kayfiyatiga ta’sir qilmay qolmaydi, albatta.

— Joriy yil mahallamiz ko‘chalarining 13 kilometriga asfalt, 33 kilometriga shag‘al yotqizildi, - deydi mahalla raisi Tolliboy Norqulov. – Piyodalar yo‘lakchalari tashkil etildi, 100 dona tungi yoritkich o‘rnatildi. Shu tariqa ko‘p yillik muammodan qutildik. Bundan tashqari, har bir qishloqda 9 ta workout maydonchasi qurilib, 3 ta maktabda ta’mirlash ishlari olib borildi. 12 ta kam ta’minlangan oilaning uyi ta’mirlab berildi. 1 nafar nogironligi bor fuqaro uchun yangi uy qurildi. 930 ta simyog‘och yangisiga almashtirildi, 5 ta yangi tranformator punkti joylashtirildi.

Mahalla markazi ham yaqingacha eski, moslashtirilgan binoda edi. Hududni obodonlashtirish tadbirlari doirasida ikki qavatli zamonaviy bino qurilib, zarur jihoz va texnikalar bilan ta’minlandi. Hozir uning ikkinchi qavatida mahallaning ishsiz xotin-qizlari uchun tikuv sexi tashkil etilgan. Unda ishlovchilar ham kasb sirlarini o‘rganadi, ham daromad qiladi.

Mahallaning xotin-qizlar faoli Dildora Isoqulovaga ko‘ra, bu davrda xotin-qizlarning faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, hududda bandlik idorasi bilan hamkorlikda o‘quv markazi ochilib, hozirgacha 30 nafar xotin-qiz o‘qitilgan hamda shundan 25 nafarining bandligi ta’minlangan.

— Mahallamiz obod bo‘lganidan keyin daromadimiz ham ortib bormoqda, - deydi Bolbuvi Namozova. – Tikuvchilik bilan shug‘ullanaman. Ilgari ishga istab-istamay, loyu tuproq kechib kelardim. Elektr toki o‘chsa, ishimiz ham to‘xtardi. Endi sharoitimiz yetarli, yengni shimarib, mehnat qilyapmiz.

Mahalla ko‘chalarini aylanarkansiz, har qadamda yangi do‘kon, ustaxona yoki ovqatlanish shoxobchasini ko‘rasiz. Qaysidiri ishga tushgan, boshqasida qurilish ishlari ketyapti. Drayveri chorvachilik va dehqonchilik bo‘lgan mahallada xizmat ko‘rsatish sohasining bu qadar tez rivojlanayotgani quvonarli.

— Sharoit bo‘lsa, odamlarning o‘zi hayotini yaxshilashga harakat qilar ekan, - deydi mahalladagi hokim yordamchisi Zayniddin Egamov. – Bunga mahallamiz misolida amin bo‘ldim. Hududimiz obod bo‘lishi barobarida fuqarolarning faolligi ham oshib bormoqda. Tadbirkorlik, ayniqsa, xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida ishlashni istovchilar ko‘p. Hozir tadbirkorlik subyektlarimiz soni 17 tadan oshdi. 4 ta umumiy ovqatlanish, 3 ta transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish shoxobchasi, hatto o‘z stomatolog va dorixonamiz bor. Kichik shaharchaga aylanib boryapmiz.

Bu mahalla hududidan hech qanday ahamiyatli ko‘cha o‘tmagan. Tashkilot, idora yoki korxonasi ham yo‘q. Xizmat ko‘rsatish shoxobchalari asosan shu yerliklarga xizmat ko‘rsatmoqda. Ya’ni, mahalla ahlining o‘ziga, hayotiga munosabati o‘zgargan, obodlik ko‘ngillarga kirib borgan. Hududda davom etayotgan o‘zgarishlar, odamlarining tinib-tinchimasligi, faolligi shundan bo‘lsa ajab emas.

**Asqar BAROTOV.**

# Lift soz bo‘lsa, mashaqqat oz bo‘ladi



Bugungi kunda viloyatimizda 2500 ta ko‘p qavatli uy bo‘lib, 717 tasida lift o‘rnatilgan. Biroq aksariyati Samarqand shahrida joylashgan turarjoy binolarining qariyb 40 foizi 1991-yilgacha qurilgan va hozirda ulardagi liftlar talabga javob bermay qolgan. Ayniqsa, Rudakiy, Gagarin, Beruniy ko‘chalarida, shuningdek, Sug‘diyona, Sartepa mavzelari, Kimyogarlar qo‘rg‘onida joylashgan ko‘p qavatli uylarning liftlari ishlamasligi aholining e’tirozlariga sabab bo‘ladi.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-iyundagi “2021-2027-yillarda respublikadagi ko‘p kvartirali uylarning lift uskunalarini ta’mirlash va yangilashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, viloyat hokimligi huzurida "Ko‘p kvartirali uylarni ta’mirlash bo‘yicha injiniring kompaniyasi” davlat muassasasi tashkil etildi. Mazkur tashkilot zimmasiga ko‘p qavatli uylardagi ishlamayotgan liftlarni yangisiga almashtirish va ta’mirlash vazifasi yuklatildi.

- O‘tgan yili Samarqand shahridagi 1991-yilgacha qurilgan 17 ta ko‘p qavatli uy-joyda 42 ta lift uskunlarini ta’mirlash va yangilash belgilangan edi, - deydi "Ko‘p kvartirali uylarni ta’mirlash bo‘yicha injiniring kompaniyasi" davlat muassasasi rahbari Otabek Abdullayev. – Shu maqsadda Toshkent shahridagi “Texnopark” MChJ bilan tuzilgan shartnoma asosida 13 milliard 27 million so‘m miqdorida mablag‘ ajratilgandi. Hozirgacha 12 ta uydagi 31 ta lift uskunasi yangisiga almashtirildi. Shuningdek, o‘nga yaqin liftni ta’mirlash ishlari olib borilmoqda.

- Uyimiz qurilganiga 35 yildan oshgan bo‘lsa-da, biror marta liftlarimiz yangilanmagan, - deydi Sartepa massividagi 147-uyda yashovchi Hafiz Jalilov. – Ayrim ehtiyot qismlarini topolmay, sarson bo‘lardik. O‘sha vaqtlarda bir necha oylab ishlamagan paytlari ham bo‘ldi. Yuqori qavatda yashovchilar juda qiynalib ketgandi. Nihoyat mablag‘ ajratilib, liftimiz yangisiga almashtirildi.

Liftlarni yangilash va ta’mirlash ishlari “Texnopark” MChJ ning 24 nafardan ortiq tajribali ustalari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Ayni vaqtda ular tomonidan Beruniy ko‘chasida joylashgan 5 ta ko‘p qavatli uyning 11 ta lift uskunasi montaj qilinmoqda. Barcha ishlar joriy yilning 25 dekabriga qadar yakunlanadi.

**Dilmurod TO‘XTAYEV.**

# Afv etilganlarga murabbiylar biriktiriladi

**Prezidentning “Jazo muddatini o‘tayotgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat’iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida”gi farmoni bilan jazo muddatini o‘tayotgan 483 nafar shaxs afv etildi. Ularning orasida 38 nafar samarqandlik ham bor.**

Viloyat ichki ishlar boshqarmasidan olingan ma’lumotga ko‘ra, afv etilganlarning (shundan, ikki nafari ayol) barchasi muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod etilgan. Shuningdek, mazkur farmonga asosan, viloyatdagi probatsiya bo‘linmalari hisobida turgan 8 nafar voyaga yetmagan shaxs jazodan to‘liq ozod qilindi.

Ma’lum qilinishicha, endi mas’ullar ularning oilaviy ahvolini o‘rganib, zarur ijtimoiy xizmatlarni belgilaydi. Har biriga murabbiy biriktiriladi.

Jamiyatga qaytganlarning ijtimoiy moslashuvini tezlashtirish maqsadida bir martalik moddiy yordam ajratiladi hamda foydali mehnatga jalb qilish choralari ko‘riladi.



*Kim qiladiya, shuginaniya*

# Katta Kamongaronning

## kichik muammolari qachon tugaydi?



Mahallamiz katta, aholi ko‘p, tabiiy gazning yo‘qligi haqida gapirib o‘tirmayin, hatto elektr energiyasi hammaga yetmaydi. Sovuq kunlar boshlanishi bilan deyarli hamma xonadonda elektr pechdan foydalaniladi. Shunday qilmasak, uylarimiz isimaydi, o‘zimiz-ku, mayli, farzandlarimiz, nabiralarimiz sovqotadi. Natijada transformatorimiz yuqori bosimga chidamay, portlab, 4-5 kun elektrsiz qolamiz. Simyog‘ochlar o‘rnatilganiga qariyb 50 yildan oshib qoldi. Yog‘ochlari chirib, yonidagi devorlarga suyanib qolgan. Elektr simlari ham cho‘zilib, osilib ketgan.

Tuman obodonlashtirish bo‘limining chiqindi tashuvchi mashinalari vaqtida kelmaganligi tufayli ariqlar turli maishiy chiqindilar bilan to‘lib ketadi. Mahallamizning Sariosiyo guzarida 300 metrli “o‘gay” ko‘cha bor. Hech kimning nazariga tushmaydigan mazkur ko‘cha yozda chang, qishda loy-botqoqqa aylanadi. Yog‘ingarchilik kunlarida mashinada yurish ham qiyin bo‘lib qoladi. Axir bu yerdan kuniga o‘nlab bolalar bog‘cha va maktabga borishadi. Biz kabi keksalar ham bu yo‘ldan o‘tishga qiynalamiz. Bozor-o‘char, oilaviy poliklinikaga yoki tuman markaziga boramiz desak, ming azob bilan o‘tishimizga to‘g‘ri keladi.

Aholi uylaridagi maishiy gaz ballon 45 kunda almashtirilishi kerak bo‘lsa-da, ba’zida 2 oy vaqt o‘tsa ham gazchilardan darak bo‘lmaydi.

Katta mahallaning “mayda-chuyda” muammolari haqida bir necha bor xalq deputatlari tuman Kengashiga, tuman hokimligiga murojaat qilgan bo‘lsak-da, “erta-indin”dan nariga o‘tishmayapti. Kimdan madad so‘rasak deya boshimiz qotgan?

**Murod QURBONZODA,**
**Urgut tumani Katta Kamongaron mahallasi.**

# Kuchli iroda, birlik, hamjihatlik

## Prezident bildirgan tashabbuslar talabi shunday



**Yangi tahrirdagi Konstitutsiya haqli ravishda O'zbekistonning jamiyat va davlat boshqaruvidagi demokratik va innovatsion islohotlarning muhim poydevori sifatida ko'rilmoqda. Asosiy qonun barcha jabhalar qatori innovatsiya va axborot texnologiyalari rivojlanishining huquqiy asosi bo'lmoqda.**

Yangi shakllangan parlament majlisida nutq so'zlagan Prezidentimiz bu borada aniq fakt va raqamlarga to'xtaldi. Murojaatnoma sifatida e'tirof etilayotgan ma'ruzada ilgari surilgan tashabbus va takliflar, bildirilgan fikrlar deputatlar shijoatiga shijoat qo'shib, ularda mustahkam ishonch, daxldorlik hislarini uyg'otganini alohida qayd etish lozim.

Umuman, Konstitutsiyamizda ilm-fan, axborot texnologiyalari va innovatsiyalarning rivojlanishi davlat siyosati sifatida belgilangan.

Bosh Qomusimizning 33-moddasida davlat internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish kafolatlangan.

Davlatimiz rahbari Oliy Majlis palatalaridagi nutqida axborot texnologiyalari va innovatsiyalar orqali O'zbekistonni global miqyosdagi taraqqiyotga olib chiqish maqsadini bayon qildi. Iqtisodiyotning raqamlashtirilishi axborot texnologiyalari iqtisodiy o'sishdagi asosiy drayverlardan biri ekanini ta'kidladi.

Bu borada ayniqsa, Yevropa Ittifoqining "GSP+" tizimi orqali mahsulotlarni raqamli platformalarda eksport qilish imkoniyatlari ko'rib chiqilayotgani e'tiborli. Xuddi shunday, axborot xavfsizligi, axborot tizimlarini himoya qilish, kiberxavfsizlik bo'yicha milliy strategiya ishlab chiqish muhim vazifa sifatida belgilandi. Yoshlarga IT imkoniyatlari yaratish, startaplarga jalb qilinishi va ular uchun maxsus fondlar tashkil etilishini qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalar qatorida qayd etildi.

Shuningdek, innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy rivojlanishning, balki ijtimoiy adolat va barqarorlikning ham muhim omilidir. Masalan, innovatsiyalarning iqtisodiy samarasi axborot texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, yangi turdagi xizmatlarni yaratish imkonini beradi. Ijtimoiy tenglik, raqamli xizmatlar va elektron hukumat orqali davlat xizmatlaridan foydalanish osonlashadi, bu esa aholining turmush sifatini yaxshilaydi. Innovatsiyalar ekotizimi: yangi texnoparklar, IT markazlar va tadqiqot laboratoriyalari yoshlar va tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Albatta, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, so'nggi yillarda keng ko'lamli demokratik islohotlarimiz tufayli O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rni yaxshilanib bormoqda. Mamlakatimiz reytingi qonun ustuvorligi bo'yicha 8 pog'ona, elektron hukumat bo'yicha 18 pog'ona, iqtisodiy erkinlik bo'yicha 49 pog'ona, logistika va innovatsiya bo'yicha 10 pog'ona yuqori ko'tarildi.

Qayd qilinganidek, bunday muhim yutuqlarni e'tirof etgan holda, biz ayni vaqtda bu yo'nalishlarda hali yana ko'p ish qilishimiz zarurligini yaxshi tushunamiz.

Masalan, xalqaro texnologiya kompaniyalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib, innovatsiyalarni mamlakatga jalb qilish uchun tashqi investitsiyalar va hamkorlik muhiti yaratish lozim.

Prezident tomonidan O'zbekistonning jamiyat va davlat boshqaruvidagi demokratik va innovatsion islohotlarning muhim poydevori sifatida quyidagilar belgilanmoqda:

Birinchidan, raqamli iqtisodiyotga o'tish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratilganligi, bu esa iqtisodiyotning zamonaviy tarmoqlarini rivojlantirishga turtki berishi.

Ikkinchidan, ta'lim sohasida innovatsiyalar va yoshlarga IT bilimlarni o'rgatishga alohida e'tibor qaratilgan. Yoshlar uchun yangi texnoparklar va ta'lim dasturlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgani.

Uchinchidan, elektron hukumat davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali shaffoflik va samaradorlik oshmoqda.

**Bekmirza ESHMIRZAYEV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

*Dolzarb mavzu*



# Maktab oshxonasida nega sog'lom ovqatlanish yo'lga qo'yilmayapti?

**Maktab oshxonalari va bufetlarida qanday oziq-ovqatlarni tayyorlash yoki sotish mumkinligini bilasizmi? Farzandingiz maktabda qanday yegulik iste'mol qilishini-chi? Mamlakatimizdagi umumta'lim muassasalarida gamburger, chizburger, hotdog, «kiriyeshki», «xrustyashki», "chips", energetik va gazlangan ichimliklar va shu turdagi mahsulotlar sotishga ruxsat etilmaydi. Bunday mahsulotlar bolalar sog'ligiga yomon ta'sir qiladi. Shuning uchun ota-onalar bolalarini bunday mahsulotlardan asrashi, ularni sog'lom ovqatlanishga o'rgatishi kerak.**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar ovqatlanishini tashkil etishning sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga ko'ra, maktab oshxonalarida yuqorida keltirilganlardan tashqari sun'iy moddalar qo'shilgan qandolat mahsulotlari, veterinariya nazoratidan o'tmagan go'sht, yaroqlilik muddati belgilanmagan, ayniqsa, uy sharoitida tayyorlangan har xil turdagi konservalar, qo'ziqorinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar, xom dudlangan go'shtli gastronomik mahsulotlar va kolbasalar, o'tkir ta'mli souslar, ketchup, mayonez, konservalar, marinadlangan sabzavot va meva kabi mahsulotlar taqiqlanadi. Shuningdek, bolalar salomatligiga zarar beruvchi boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini sotish ham mumkin emas.

Ammo bu qoida va normalarga maktab oshxonalari amal qilmayapti.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi viloyat boshqarmasining ma'lum qilishicha, 2024-yilning 10 oyida boshqarmaning shahar va tuman bo'limlari xodimlari hududiy maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari bilan bolalar bog'chalari va umumta'lim maktablarida tekshiruvlar olib borgan.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yildagi "Maktabgacha hamda umumta'lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish ishlarini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, joriy yilda viloyatdagi 1266 ta umumta'lim maktablaridan 915 tasida nazorat tekshiruvlari o'tkazilgan. Sanitariya nazorati olib borilgan maktablarning 453 tasida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari bo'yicha kamchiliklar aniqlangan va ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan. Shuningdek, o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tmagan 190 nafar xodim vaqtincha ishdan chetlatilgan, 24 ta umumta'lim maktabida yuqumli kasalliklar ko'paygani va sanitariya talablariga javob bermaganligi sababli oshxonalarning vaqtincha ish faoliyati to'xtatilgan.

Yangi o'quv yili boshlanishidan oldin viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasiga, tuman (shahar) bo'limlari va umumta'lim maktablari rahbarlariga sanitariya me'yor va qoida talablari bo'yicha 38 turdagi taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlarining maktab bufetida sotilishini taqiqlash bo'yicha topshiriq xatlari yuborilgan. Ammo ushbu topshiriq xatga deyarli hech qaysi maktab amal qilayotgani yo'q. Istalgan maktab oshxonasi yoki bufetiga kirsangiz, ta'qiqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini topasiz.

Masalan, yaqinda viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi xodimlari Bulung'ur tumanidagi ayrim maktablarda o'rganish olib borgan. Ushbu tumanning 22-umumta'lim maktabida joylashgan oshxona o'rganilganda, oshxonada taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari pishirib sotilayotgani, idishlarni yuvish uchun sharoit yaratilmagani, muzlatkichda oziq-ovqatlar tartibsiz saqlanayotgani aniqlangan.

Tumanning 36- va 54-umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari sotilayotgani, oshxonalarning sanitariya holati qoniqarsiz ekani aniqlangan.

Shuningdek, Samarqand shahridagi 5-, 51-, 52-umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi oshxonalar o'rganilganda, yuqoridagilardan ham ayanchli holatlarga duch kelingan. Ushbu maktablardagi oshxona va savdo do'konlarida uy sharoitida tayyorlangan "fastfud", qo'lbola mayonez, kremli mahsulot va gazlangan, rangli ichimliklar sotilayotgani, yarim tayyor mahsulotlar shu yerning o'zida sanitariya holati saqlanmagan sharoitda tayyorlanayotgani, ishlatilgan idishlarni yuvish uchun uchun umuman sharoit yo'qligi aniqlangan. Yanayam ayanchlisi, shahardagi 51-umumta'lim maktabi oshxonasining muzlatkichida mog'orlab ketgan pomidor va murabbo mahsulotlari topilgan.

- Biz o'quv yilining boshida maktablarni o'rganganimizda, shuncha ogohlantirishimiz va seminar-mashg'ulotlari o'tishimizga qaramay, maktab oshxona va bufetlarida 38 turdagi taqiqlangan mahsulotlar sotilishiga guvoh bo'ldik, - dedi sanepidqo'mitaning viloyat boshqarmasi bolalar-o'smirlar gigiyenasi bo'limi mudiri Iroda Oripova. – Albatta, bunday holatda nafaqat tadbirkor, balki maktab direktoriga ham ma'muriy bayonnoma qo'llaniladi. Sababi, ta'lim muassasalari oshxonalarining ijara shartnomasi «Davlat mulkini ijaraga berish markazi» davlat unitar korxonasi (ijaraga beruvchi), talabgor (ijaraga oluvchi) va ta'lim muassasasi (balansda saqlovchi) o'rtasida qonunchilikka muvofiq tuziladi. Shuning uchun maktab rahbari maktab hududiga kirib kelayotgan oziq-ovqat mahsuloti uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Agar maktab direktorlari biz bilan birga ishlab, maktab oshxonasiga ta'qiqlangan mahsulotlarning kirishiga yo'l qo'ymasa, birgalikda muammoning oldini olish mumkin.

Bugungi kunda viloyatdagi umumta'lim maktablarida 784 ta oshxona va bufetlar faoliyat olib bormoqda. Shundan, 573 ta oshxona va bufetlar Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi orqali elektron-onlayn auksion savdosiga chiqarilib, auksionda g'olib bo'lgan tadbirkorlar faoliyat olib bormoqda. Shunisi qiziqki, maktab oshxonalarini yuritayotgan tadbirkorlarning faoliyatini tadbirkorlarning huquqlarini himoya qiluvchi vakil – ombudsman ruxsati olingandan keyin tekshiriladi. Bunday tartib yuqoridagi qarorda belgilangan. Agar maktab oshxonasida taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari sotilayotgan bo'lsa, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi xodimlari maktab rahbarlari bilan birgalikda oshxonani yuritayotgan tadbirkorni ogohlantira oladi, xolos. Ammo tadbirkorga nisbatan ma'muriy chora ko'ra olmaydi.

Yanayam qizig'i, maktab oshxonasini tekshirishga ombudsman ruxsat bergan taqdirda ham, tadbirkorga bu haqda oldindan xabar qilinadi. Albatta, tadbirkor belgilangan kun oshxonani "top-toza" qilib qo'yadi. Tabiiyki, tekshiruvchilar oshxonadan hech qanday taqiqlangan oziq-ovqat mahsuloti topa olmaydi. Ertasi kuni tadbirkor yana o'z faoliyatini shu zalda davom ettiraveradi.

Ilgari maktablar sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limlari tomonidan bir yilda to'rt martagacha tekshirilgan bo'lsa, endilikda bir yilda atigi bir marta tekshirishga ruxsat beriladi. Tekshiruvdan o'tgan maktab oshxonasi yana ilgarigidek istalgan oziq-ovqat mahsulotini sotaveradi.

Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi. Xo'sh, nima uchun tadbirkor taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini keltirib sotadi? Birinchidan, u foyda ko'rish uchun maktab oshxonasini yurityapti. Ikkinchidan, u ijara puli to'laydi. Shuning uchun bolalar ko'proq nima iste'mol qilsa, shuni keltirib sotishga harakat qiladi.

Demak, tadbirkorning daromadini o'ylaydigan bo'lsak, maktab oshxonasi yoki bufetida istalgan oziq-ovqat mahsulotini sotishga ruxsat berishimiz kerak. Unda bolalar salomatligini kim o'ylaydi? Ularning ovqatdan zaharlanmasligiga, yuqumli kasalliklarning ko'paymasligiga kim kafolat beradi? Bizga tadbirkorning daromadi muhimmi yoki bolalar salomatligimi?

To'g'ri, bugun tadbirkorlarga keng imkoniyatlar berilyapti, ularning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmayapti. Mayli, tadbirkor o'z faoliyatini boshqa joyda amalga oshiraversin, xalqqa xizmat qilib, daromadi ko'payaversin. Ammo maktab oshxonalarini tadbirkorlarga berish qanchalik noto'g'ri ekanining bugun guvohi bo'lyapmiz. Tadbirkor bolalarni sog'lom ovqatlanishini emas, savdosi avj olib, daromadi ko'payishini istaydi.

Yana bir gap, oshxonasi ham, bufeti ham yo'q maktablarda o'qiyotgan bolalar maktab yaqinidagi savdo do'konlaridan yeguliklar sotib oladi. Hatto bunday do'konlarda insonlar salomatligiga zarar keltiruvchi energetik ichimliklar sotilishi juda achinarli.

Sog'lom hayot tarzini kundalik turmushimizga joriy qilishimiz uchun yuqoridagi kabi muammolarning oldini olishimiz zarur. Bugun bolalarni sog'lom ovqatlantirishni yo'lga qo'yishni faqat davlat o'z zimmasiga olishi kerak. Siz nima deysiz?

**Xurshida ERNAZAROVA**
**"Zarafshon" muxbiri.**

**BU FAKT!**

**Statistika boshqarmasiga ko'ra, 2024-yil yanvar-oktabr oylari viloyat importi tarkibida sanoat mahsulotlari hajmi 503,2 million AQSh dollarini, ya'ni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 125 foizni tashkil etdi. Importning umumiy hajmidagi ulushi 27,6 foizga yetdi.**

# Elektrobuslar xizmatidan foydalanyapsizmi?



Samarqand shahrida jamoat transporti tizimini rivojlantirish, aholiga ko'rsatilayotgan xizmat sifati va jozibadorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'tgan yil shaharga Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mablag'lari hisobidan "Yashil shahar" loyihasi asosida 100 ta elektrobus olib kelish rejalashtirilgan edi. Hozirgacha ularning 36 tasi keltirilib, aholi ko'p qatnovchi to'rtta yo'nalishga qo'yilib, brutto shartnomasi asosida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

- Elektrobuslardan tashqari 15 ta quvvatlash qurilmalari ham olib kelinib, o'rnatilmoqda, - deydi "Samarqandyo'lovchitrans" davlat korxonasi rahbari Akbar Bahriyev.

Elektrobuslarni saqlash, texnik va servis xizmatlari ko'rsatish maqsadida Gagarin ko'chasida qariyb 4 gektar maydonda saroy qurilishi ham yakuniga yetkazilmoqda.

Hozirda elektrobuslarimiz soni 51 taga yetdi va yil yakunigacha yana 49 ta elektrobus olib kelinadi.

**Dilmurod TO'XTAYEV.**

# «Ma'rifat karvoni» Samarqandda

**Yurtimizda o'tkazilayotgan "Tamaddun, madaniyat va ma'rifat" mavzusida "Ma'rifat karvoni" ilmiy-ma'rifiy va madaniy targ'ibot tadbirlari Samarqandda ham ko'tarinki ruhda o'tkazildi.**



Dastlab Samarqand shahridagi Yoshlar markazida "Yangi O'zbekistonda ma'naviy, diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va bunyodkorlik ishlari" mavzusida ziyolilar forumi o'tkazildi.

Tadbirda respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abduxoliqov, viloyatdagi ziyolilar, imom-xatiblar, otinoyilar hamda mahalla oqsoqollari ishtirok etdi.

- Mazkur tadbir olim, ziyoli, san'at va madaniyat namoyandalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlarga mas'ullar, mahalla faollari hamda ilg'or yoshlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, mamlakatning milliy mafkura yo'nalishidagi islohotlari, jamiyatni, ayniqsa, yoshlarni buzg'unchi g'oyalardan himoya qilish maqsadida mamlakatimizning barcha hududlarida tashkil etilmoqda, - deydi Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov. – Shuningdek, davlatimiz rahbarining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Oliy Majlis Senatining birinchi yalpi majlisidagi nutqi hamda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini ziyolilar ishtirokida xalqimizga yetkazish va tushuntirishni oldimizga vazifa qilib qo'yganmiz.

Loyiha doirasida viloyatning barcha hududlarida "Yangi O'zbekiston – islohotlar falsafasi" nomli anjuman, ilg'or, faol yigit-qizlar ishtirokida "Zamonaviy yoshlar – taraqqiyot drayveri" mavzusida ilm-fan va innovatsiyalarga bag'ishlangan mahorat darslari, shuningdek, "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar" kitob-albomi taqdimoti kabi tadbirlar o'tkazildi.

**F.RO'ZIBOYEV.**

# SamDU olimlari va talabalari Belgiyaga boradi

**Belgiyaning Bryussel shahrida Yevropaning ERASMUS+ dasturi asosida «O'zbekistonda telekommunikatsiya mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish uchun fotonika va optik aloqalar bo'yicha yangi magistratura (INMACOM)» loyihasi doirasida uchrashuv bo'lib o'tdi.**

Unda Bryussel va Tent, Italiyaning Turin politexnika universitetlari hamda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, SamDU, O'zMU va TATU Urganch filiali professor-o'qituvchilari hamda «O'zbektelekom» aksiyadorlik kompaniyasidan mutaxassislar ishtirok etdi.

- INMACOM loyihasi oliy ta'lim tizimidagi nufuzli dasturlardan sanaladi, - deydi Samarqand davlat universitetining birinchi prorektori, professor Ahmadjon Soliyev. – Uchrashuvda ushbu loyihaning yillik hisoboti va keyingi yilda bajarilishi lozim bo'lgan rejalar muhokama qilindi. Har bir hamkor universitet loyiha doirasida amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisobot berdi. Xususan, 2023-2024-o'quv yilida universitetimizda fotonika bo'yicha magistratura yo'nalishi ochildi. Respublikada yagona sanalgan ushbu magistratura mutaxassisligi bo'yicha dars mashg'ulotlari Yevropa universitetlari tuzilgan o'quv reja va fan dasturlari asosida tashkil etilgan. Uchrashuvda ushbu yo'nalishda hozirgacha amalga oshirilgan ishlarni taqdim etdik.

Tadbirda ishtirokchilar hamkor vakillar bilan Yevropa universitetlarida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va ta'lim sifatini nazorat qilish bilan bog'liq masalalar yuzasidan fikr almashdi hamda Bryussel universitetidagi mavjud ilmiy va o'quv laboratoriyalari faoliyati bilan tanishdi.

Tadbir yakunida Bryussel universiteti hamda Samarqand davlat universiteti o'rtasida 2025-yilning fevral va mart oylarida SamDUdagi fotonika mutaxassisligida tahsil olayotgan 2 nafar magistratura talabasi hamda 2 nafar professor-o'qituvchi Bryussel universitetida amaliyot o'tashiga kelishib olindi.

**Abduvohid JUMABOYEV.**



# Energiya yetkazib berishdagi hujjatbozlik kamayadi

**Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 22-noyabrdagi 780-son qaroriga asosan, quvvati 20 kilovatdan ortiq bo'lgan iste'mol obyektlariga energiya yetkazib berish loyihalarini kelishish bo'yicha xulosa olish yanada osonlashdi.**

Endi bu xizmatdan ham jismoniy, ham yuridik shaxslar davlat xizmatlari markazlari yoki yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) va "Litsenziya" AT platformasi orqali foydalanishi mumkin.

Ariza 5 ish kunida ko'rib chiqiladi va buning uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi miqdorida yig'im to'lanadi. Biroq ruxsat etish xususiyatiga ega hujjat berilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

Mazkur hujjatning amal qilish muddati cheklanmagan bo'lib, iste'molchi tomonidan qo'shimcha quvvatga ehtiyoj tug'ilganda, qo'shimcha texnik shart olish uchun loyiha qayta kelishilishi lozim.

**Madina QURBONOVA,**
**Samarqand shahar davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi.**

# Artishokdan shifobaxsh fitochoy



Tikanli artishok (Cynara scolymus L.) qimmatbaho o'simlik bo'lib, hozirgi kunda Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining tajriba maydonida, Payariq tumani va Buxoro viloyatining o'rtacha sho'rlangan hududlarida 50 sotix maydonda ekib parvarishlanmoqda. Bu o'simlikning birinchi vegetatsiya yilida 2 marta, 2-3-vegetatsiya yilidan boshlab, yiliga 4 martagacha dorivor xomashyosi hisoblangan yer ustki qismini yig'ib olish mumkin.

Institut tajriba maydonida 2021-yildan beri parvarishlanib kelinayotgan artishok navlari chuqur fitokimyoviy tahlil natijalari olimlar tomonidan o'rganildi. O'rganish natijasida ushbu o'simlik xomashyosidan shifobaxsh fitochoy ishlab chiqarish hamda aholiga yetkazib berish bo'yicha Sog'liqni saqlash vazirligining maxsus ruxsatnomasi olindi.

Mazkur mahsulot turi respublikamiz uchun yangi hisoblanadi. E'tiborli tomoni, mahsulotni institutning o'quv-ishlab chiqarish sexida professor-o'qituvchilar hamda talabalar tomonidan ishlab chiqilmoqda hamda keng ommaga yetkazib berilmoqda.

Institutning bir guruh professor-o'qituvchilari O'zbekiston xalq tabobati assotsiatsiyasi a'zosi, sog'liqni saqlash fanlari bo'yicha falsafa doktori Leye Chabum bilan hamkorlikda dorivor o'simliklardan tabobatda foydalanish bo'yicha muzokaralar olib bormoqda.

Tikanli artishok, Samarqand buznochi, bo'yimodaron, olao't, moychechak, xushbo'y igir, limono't kabi istiqbolli dorivor o'simliklarni yetishtirish va xomashyosini tayyorlash bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari koreyalik mutaxassislarda qiziqish uyg'otmoqda. Dorivor o'simliklar turlarini ko'paytirish va ulardan xalq tabobatida keng foydalanish bo'yicha o'zaro hamkorlikka kelishib olindi.

Sohani rivojlantirishda Janubiy Koreya tajribasini olib kirish hamda moddiy-texnik bazani mustahkamlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirish, o'zaro hamkorlikda seminar mashg'ulotlari tashkil etish, yosh mutaxassislarning xorij mamlakatlarida malaka oshirishlari yuzasidan o'zaro kelishuvlarga erishildi.

**Anvar SHAMSIYEV,**
**Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i.**

# Pirotexnikaning narxi ham, oqibati ham "qimmat"

Viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari tomonidan "Xavfsiz hudud - dolzarb 50 kunlik" profilaktik tadbiri doirasida olib borilayotgan nazorat vaqtida Samarqand temir yo'l vokzalining avtoturargohidagi haydovchilardan biri shubhali ko'rindi. Uning avtomashinasi ko'zdan kechirilganda, gumon o'z isbotini topdi.



Gap shundaki, fuqaro avtotransportining yuk saqlash joyida 2 quti, jami 72 dona "25 Palmeras" nomli hamda 1 quti (etti dona) "Robin Gud" nomli pirotexnika vositalarini yashirayotgan ekan. Tezkor surishtiruv davomida fuqaro N.V. ushbu vositalarni telegram ijtimoiy tarmog'idagi guruh orqali olgani ma'lum bo'ldi. Xususan, u "25 Palmeras" nomli pirotexnika vositasining har bir qutisini 950 ming so'mdan, "Robin Gud"ni esa 135 ming so'mga xarid qilgan.

Qimmatga tushgan fuqaro endi qonun oldida ham javob beradi.

**A.ABDUALIMOV,**
**viloyat transportda XTB TQB JQB katta tezkor vakili, kapitan.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## DA'VOLAR BO'LSA...

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasida marhum Qironov Eshmurza Tursunovichga (2013-yil 19-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.**

* * *

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasida marhum Ibragimov Abdiqodir Mavlyanovichga (2014-yil 27-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Rasulov Muminga (2008-yil 17-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Gulyamova Naima Sadikovnaga (2023-yil 12-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Normuxamedov Iso Aliyevichga (2002-yil 29-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.**

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Omonov Erkinga (2023-yil 11-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Axtamov Xasan Xotamovichga (2023-yil 17-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Raximov Jahangir Musurmonovichga (2019-yil 8-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Pevney Yuriy Pavlovichga (2023-yil 26-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasida marhum Narzikulov Saidkulga (2022-yil 13-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahtamov Erkinjon Tolibjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani Xo'ja Ahror Valiy mahallasi.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Xushova Miyassar Xaydarovnaga (2021-yil 28-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Tursunov Shodiga (2024-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Bobokalonov Shoximardonga (1979-yil 19-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasida marhum Axmedov Maxmudjonga (2024-yil 17-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak Yuli ko'chasi, 18-uy, 14-xona.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Bolkiboyev Shokir Amirovichga (2022-yil 19-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 76-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Sadiyeva Masuda Xaydarovnaga (2018-yil 2-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy, 21-xona.**

* * *

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasida marhum Shermatov Rafaelga (2007-yil 28-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qurbonov Azizjon Ro'ziyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Narpay tumani Oqtosh shahri, Imom Buxoriy ko'chasi.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Abbazov Obid Muzaforovichga (2023-yil 23-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Oblokulova Safar-oyga (2017-yil 21-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Inakov Ural Sadullayevichga (2024-yil 25-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Rahimov Akramga (2005-yil 8-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Djalilova Gulnoz Boltayevnaga (2024-yil 21-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasida marhum G'ulomov Kasimga (2023-yil 31-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 85-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasida marhum Urunova Xalimaga (2024-yil 16-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 85-uy.**

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum G'apparov Orifjon Abdukarimovichga (2021-yil 12-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.**

* * *

## BEKOR QILINADI

Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanidagi "ASQAR TRANS GOLD KLASTERI" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 307284425) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Sotuvchi "E'ZOZA GUZAL KELAJAK" NMTM direktori Xolov Bekzod Muminovich va sotib oluvchi Nabiev Anvar Rustamovichlar o'rtasida Past Darg'om tumani Boltali mahallasida joylashgan maktabgacha ta'lim muassasasi (qurilish osti maydoni 383,94 m.kv., foydali (ichki) maydoni 945,61 m.kv., 31 ta xonadan iborat, umumiy yer maydoni 2448,84 m.kv., yer maydonisiz) uchun "SAMARQAND DILLER RIELTOR SERVICE" MCHJ vositachiligida 2021-yil 4-mayda to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 152-sonli 1 nusxadagi kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnoma asosida tuzilgan 2 nusxadagi ko'chmas mulkning oldi-sotdi shartnomasi hamda 1 nusxadagi ko'chmas mulkni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Sotuvchi Bozorov Sharof Xalilovich va sotib oluvchi Bobonazarov Sanjar Qodirovichlar o'rtasida Samarqand shahri Bahodirxon ko'chasi 51-uy-joyning 5/100 qismi uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasidan 2023-yil 23-yanvarda tasdiqlanib, Ksh 058183 SA blankada tuzilgan, 202301795000223 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Samarqand shahridagi Zaxidov Nodirjon Marufovich yakka tartibdagi tadbirkorining (STIR: 518695432) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Sotuvchi G'iyosov Umedjon Boboyevich va sotib oluvchi Osmanova Elmira Nabiyevnalar o'rtasida Samarqand shahri "Hayotobod" MFY, Shota Rustsveli ko'chasi 4-"A" uy, 52-sonli kvartira uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasidan 2022-yil 20-sentabrda tasdiqlanib, Ksh 098040 SA blankada tuzilgan, 202201763002761 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

## TOPGANGA MUKOFOT!

Namozov Botir Abduxakimovichga qarashli davlat raqami 30 PA 272 bo'lgan "DX300LCA" rusumli zanjirli ekskovatorning texnik pasporti Samarqand tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

**Telefon: +99895-242-21-22.**

**Davlatimiz rahbarining shu yil 12-sentabrdagi qaroriga ko‘ra, yurtimizda buyuk munajjim, qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan buyuk bobomiz shaxsiyati, tarixi, asarlari, qoldirgan boy merosi haqida o‘rganishlar davom ettirilib, respublika va xalqaro darajadagi anjumanlar o‘tkazildi. Mirzo Ulug‘bekdan qolgan eng katta meros – bu Samarqanddagi rasadxona hisoblanadi.**

# Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi o‘rnini samarqandlik mudarris aniqlagan

Xo‘sh, Mirzo Ulug‘bekning dunyoga mashhur rasadxonasi o‘rnini kim, qanday topgan?

Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi qurilganda mazkur hududda rasadxona bo‘lmagan va bu haqda manbalarda ham hech qanday ma’lumot uchramaydi. Faqat Hindiston va Eronda rasadxonalar bo‘lgan. Ammo XV asrga kelib, ushbu rasadxonalarda tuzilgan yulduzlar katalogida ba’zi noaniqliklar kuzatila boshlaydi. Bu esa yulduzlar katalogini qayta tuzish ehtiyojini yuzaga keltiradi va 1424-1428-yillarda Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi quriladi. Mirzo Uluug‘bek davrida rasadxonada ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib boriladi va uning vafotidan keyin ham rasadxona 20 yilga yaqin faoliyat ko‘rsatadi. Keyinchalik toj-taxt uchun kurashlar natijasida rasadxona faoliyati to‘xtatilib, olimlar va shu jumladan, Ulug‘bekning eng yaqin shogirdi Ali Qushchi ham bu yerni tark etadi. Tepalik qarovsiz qolib, tuproq uyumiga aylanadi.

XIX asrning ikkinchi choragidan boshlab Samarqand mintaqasiga, umuman, Samarqand tarixi va arxeologiyasiga jahon miqyosida qiziqish orta boshlaydi. Shu davrda Mirzo Ulug‘bek rasadxonasini ham izlash boshlanadi. Bunga rus komiteti juda katta mablag‘ sarflaydi va ishni o‘sha vaqtda Samarqanddagi yodgorliklarni kuzatuvchisi, arxeolog olim Vasiliy Vyatkinga topshirishadi. Vyatkin bu ish bilan uzoq vaqt shug‘ullanadi, lekin rasadxona o‘rnini aniqlash cho‘zilib ketadi.

**RASADXONA VAQF HUJJATI ORQALI TOPILGAN**

“Samariya” kitobining muallifi - Abu Tohir Xo‘janing avlodidan bo‘lgan, Shayboniyxon madrasasi mudarrisi, o‘z davrining iqtidorli xattot va rassomi, samarqandlik Abduqayum Maxsum o‘g‘li Abu Sayyid Maxsum ushbu hujjat orqali Ulug‘bek rasadxonasi o‘rnini aniqlaydi.

Abu Sayyid Maxsum ko‘kyo‘tal kasaliga chalinib, yaqinlarining maslahati va yordamida Oloyga davolanishga keladi. Bu yerda u Oloy malikasi Qurbonjon dodxoh (1811-1907 y.y.) bilan uchrashadi. Uchrashuvda Qurbonjon dodxoh o‘zida Qo‘qon xonligining kutubxonasi va qo‘lyozmalari borligini, unda xonning hujjatlari va dastxatlari bilan birga marhum turmush o‘rtog‘i, Andijon hokimi Olimbekning Qo‘qon xonligi va chet eldagi qo‘shni xonliklar bilan muloqoti aks etgan besh sandiqdan iborat hujjatlar borligini ma’lum qilib, Abu Sayyidga ularni ko‘rib, tartibga solishni va ro‘yxatga olishni iltimos qiladi (ba’zi tadqiqotchilarning fikricha, Qo‘qon xonligiga tegishli bo‘lgan ushbu qo‘lyozma hujjatlar 1873-1875-yillarda Po‘latxon qo‘zg‘oloni vaqtida u bilan birga janglar olib borgan Qurbonjon dodxoh qo‘liga tushib qolgan).

Abu Sayyid davolanish bilan birga, arxiv hujjatlarini tartibga solish bilan shug‘ullanadi. Bir necha oydan so‘ng Abu Sayyid Maxsum ancha sog‘ayib, Oloydan Samarqandga qaytadi. U o‘zi bilan Qurbonjon dodxohning hali o‘rganib ulgurmagan hujjatlari saqlanadigan oxirgi bir sandig‘ini olib keladi. Mazkur sandiqdagi hujjatlarni o‘rganayotganida bir hujjat uning e’tiborini tortadi. XVI asrga oid ushbu hujjatda rasadxona yaqinida joylashgan tepalik yaqinida yashagan, hech kimi yo‘q ayol vafotidan oldin hovlisini yonidagi masjidga hadya qilish haqida vaqf hujjatini imzolagan edi. Bu hujjatda yerning koordinatalari ko‘rsatilgan, ya’ni yer bir tomondan Obi Rahmat arig‘i bilan, ikkinchi tomondan bedazor bilan, uchinchi tomondan mahallaning jome masjidi bilan va to‘rtinchi tomondan Tole’ Rasad tepaligi bilan chegaralangan edi.

“Tole’ Rasad” deganda gap Ulug‘bek rasadxonasi haqida borayotganligiga shubhasi bo‘lmagan Abu Sayyid Maxsum bu haqda anchadan beri rasadxona o‘rnini aniqlashga harakat qilib yurgan do‘sti Vyatkinga aytib beradi. Hujjat bilan tanishgan Vyatkin qazish ishlarini boshlab dastlabki kunlardan mashhur inshootning asos qismini topishga muvaffaq bo‘ladi.



Bundan ko‘rinadiki, rasadxonaning o‘rni V.Vyatkin tomonidan emas, vatandoshimiz, samarqandlik mudarris Abu Sayyid Maxsum tomonidan aniqlangan. Buni o‘z davrida Rossiya imperiyasidagi nufuzli ilmiy jamiyatlar ham tan olgan. Abu Sayyidga ilm-fan yo‘lidagi xizmati, Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi o‘rnini aniqlaganligi uchun O‘rta va Sharqiy Osiyoni tarixiy, arxeologik, lingvistik va etnografik jihatdan o‘rganish Rus komiteti tomonidan 100 rubl miqdorida mukofot berilgan va moddiy jihatdan qiynalgan bo‘lishiga qaramasdan, V.Vyatkin tomonidan dastlab Afrosiyob tepaliklarida, keyin Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi o‘rnida va Samarqand atroflarida olib borilgan qazish ishlarida hamrohlik qildi. V.Vyatkin sharq qo‘lyozmalari va vaqf hujjatlaridagi tushunarsiz va bahsli joylar xususida undan maslahat olib turgan. Masalan, Samarqand davlat muzey-qo‘riqxonasi fondida saqlanayotgan V.Vyatkin qalamiga mansub “Samarqand me’moriy yodgorliklari” risolasida ham muallif o‘z xulosalarida Abu Sayyid Maxsumga tayanganligining guvohi bo‘lamiz.

**Mahmudxon YUNUSOV,**
**muzeyshunos, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.**

---

*Turmush chorrahalarida*



# MUALLIM *nega* MULZAM *bo‘ldi?*

Tilak muallim Abdullaning qurilish tashkilotiga boshliq bo‘lganini eshitib, bir paytlar uni o‘qitgani yodiga tushdi: “Ustozligimni unutmagandir...”.

...Abdulla Ahmedovich, sizni bir kishi yo‘qlab kelibdi, ustozingiz ekan, kiraversinmi? - kotiba javob kutib, eshikda turib qoldi.

- Ustozim? - Abdulla Ahmedovich ko‘p ustoz ko‘rgan, “qaysi biri ekan”?

- U biroz o‘ylanib qoldi. Keyin o‘rnidan turdi. – Mayli, kirsin!

- Abdullajon, meni tanidingmi? - Tilak muallim quchoq ochib kirib keldi.

- Ey, muallim qadamingizga hasanot. - Abdulla Ahmedovich ko‘rishib, Tilak muallimni o‘tirishga taklif qildi. Ustoz, deyishga negadir tili bormadi.

- O‘g‘lim, xudo omadingni bersin, kamolingni ko‘rib, boshim osmonga yetdi. Amal muborak!

- Rahmat! - Abdulla Ahmedovich o‘ng‘aysizlanib, zimdan Tilak muallimga razm soldi. Ancha keksayib qolibdi. Maktabni bitirishdagi voqea esiga tushdi. Bitirish imtihonlari oldidan Tilak muallim Abdullani yoniga chaqirdi.

- Attestatdagi baholaring yaxshi bo‘lishini istaysanmi? Agar men aytgan arzimagan ishni bajarsang, xuddi ko‘nglingdagidek bo‘ladi. - Tilak muallim unga sinovchan tikildi. – Albatta, bir o‘zing emas, ikki-uchta o‘rtoqlaringni yoningga olasan, besh mingta g‘isht quyib berasanlar.

Abdulla Tilak muallim aytganini qilmagan ikki nafar a’lochi o‘quvchining oltin medaldan mahrum qilinganini eshitgan edi. Xo‘p deyishga majbur bo‘ldi.

O‘sha voqeani eslar ekan, u Tilak muallim bekorga yo‘qlab kelmaganini sezdi. “Keksayganda ham tamagirligi qolmabdi-da!”.

- Keling, muallim, sizni sog‘-salomat ko‘rib, xursand boldim!

- Balli, Abdullajon, kam bo‘lma! Sening ishing ko‘p, rahbarsan, vaqtingni olmay, mana, ko‘rdim, tabrikladim. Muddaoga ko‘cha qolay. Endi, aybga buyurmaysan. Qurilish tashkiloting katta, qo‘ling uzun, bir iltimos bilan keluvdim. Imorat qurayotgandim. Shu desang, tomni yopishda qiynalib qoldim...

Abdulla Ahmedovich hushyor tortdi: “Ha, mana, nimaga yo‘qlab kelganini endi tushundim”.

- Muallim, men yaqinda tayinlandim. Hali pastu balandni o‘rganib chiqqanim yo‘q, uzr. Hozircha yordam qilolmayman.

Tilak muallim buni kutmagan edi. Qizarib, mulzam bo‘lib qoldi.

**Tog‘aymurod SHOMURODOV.**

---

*Sport*

## Besh nafar kurashchimiz jahon chempioni bo‘ldi

**Mo‘g‘uliston poytaxti Ulan-Bator shahrida kurash bo‘yicha yoshlar va o‘smirlar o‘rtasida IX, faxriylar o‘rtasida III jahon chempionati bo‘lib o‘tdi.**



Musobaqada 30 ta oltin, 30 ta kumush va 12 ta bronza medalni qo‘lga kiritgan kurashchilarimiz umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni egalladi.

Jahon chempionatida milliy terma jamoamiz tarkibida yurtimiz sharafini himoya qilgan besh nafar samarqandlik kurashchi oltin medalni qo‘lga kiritdi.

Yoshlar va o‘smirlar o‘rtasida Bunyod Shavkatov, Firdavs Niyatullayev, Hamid Obloqulov, Mehribon Rabbimova, faxriylar o‘rtasida Sherqul Boboqulov chempion bo‘ldi.



## Nigina O‘ktamova Osiyo chempionatida kumush medalni qo‘lga kiritdi

**Tailandning Chiangmay shahrida boks bo‘yicha kattalar o‘rtasida Osiyo chempionati o‘tkazilmoqda.**

- 57 kilogramm vazn toifasida yurtimiz sharafini himoya qilayotgan ishtixonlik bokschi Nigina O‘ktamova finalda mezbon bokschiga imkoniyatni boy berdi va Ruyenrosga qarshi jang o‘tkazdi. U Osiyo chempionatini kumush medal bilan yakunladi.

---



# "Hayolimga solib arg‘imchoq..."

**Dilshoda Saidolimova 1952-yil 31-yanvarda Oqdaryo tumanida tavallud topgan. Samarqand pedagogika institutining o‘zbek tili va adabiyoti fakultetini tamomlagach, qishloq maktabida mehnat faoliyatini boshlagan. 1975-yildan keyin uning hayoti Toshkent bilan bog‘landi. "Yosh qalamkashlar" to‘garagi rahbari, 1977-yildan G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotida muharrir, 1994-yildan respublika radiosida katta muharrir bo‘lib ishlagan. "Umidim" nomli ilk she’rlar to‘plami G‘.G‘ulom nomidagi "Adabiyot va san’at" nashriyotida 1980-yilda nashr qilingan. 1986-yilda "Sen mening quvonchimsan" nomli hikoyalar to‘plami chiqdi. "Kichkina ammam", "Qizlar" kitoblari muallifi. 2022-yilda "Xayolim guli" she’rlar to‘plami, 2023-yilda "Urushdan qaytmagan bolalar" nomli hikoyalar va qatralar to‘plami o‘quvchilar qo‘liga tegdi.**

### OQDARYODAN YIROQDA...

*To‘qayzorlar ichra sokin,*
*Chayqalib kelar mudom.*
*Momo yanglig‘ o‘zi, lokin*
*Kelinchak qizday Oqdaryom.*

*Moviy-moviy to‘lqinlari*
*Xayolimga to‘r soladi.*
*Yumshoq qumli qirg‘oqlari*
*Xotiramga qo‘l soladi.*

*Ancha bo‘ldi, bexabarman*
*Ko‘pdan sendan yiroqdaman.*
*Bunda guli beanbarman,*
*Tik qoyali qirg‘oqdaman.*

*Ko‘pdan sendan olisdaman men,*
*Cho‘milmadim to‘lqinlaringda.*
*Ko‘pdan sochim silamading sen,*
*Charx urmadim qushday bag‘ringda.*

*Tashvishlardan xoli bolalik*
*Qoldi mangu qirg‘oqlaringda.*
*Vujudimda so‘ngsiz tashnalik,*
*Qovrilaman firoqlaringda...*

### UCHRASHUV

*Onajon, sarg‘ayib kutasan intiq,*
*Intiqlik rangiga kiradi chehrang.*
*Borliging ishonchu idrokka to‘lig‘,*
*Beparvo kunlar-chi, keltirmas bolang.*

*Bardoshlaring aqlingday kamol topgan,*
*Ertadan xushnud bir xabar kutasan.*
*Ko‘zlaring so‘ngi yo‘q o‘ylardan tolgan,*
*Hadik, xavotirni suvday yutasan.*

*Qiz bola deysan-da. Begona shahar...*
*G‘unchalab ketadi boshingda oson,*
*Yomonlikning turli-tuman gullari,*
*Ayniqsa, qish chog‘i uzoq tunlari.*

*Bezovta xayoling chorlaydi tinmay,*
*Bir kun shamoldayin kirib boraman.*
*Quvonchlarimni men uncha bildirmay,*
*Bag‘ringga tomchiday singib ketaman.*

### BEKATLAR

*Manzil sari yelar avtobus*
*Ufqlarga tutash yo‘l bo‘ylab.*
*Har bir bekat tovlangan tovus,*
*Dugonajon, ko‘rgin bir o‘ylab.*

*Lekin so‘nggi bekatga yetmay*
*Kimdir tushar, kimlardir chiqar.*
*Inson umri, hayot ham shunday,*
*Bekatlardan bekatga chopar...*

*Bolalik ham o‘tdi, chamamda,*
*«Opa» deya atashar qizlar.*
*Hademayin o‘zga chamanda*
*«Yanga» bo‘lib qolamiz bizlar.*

*Yangi bekat chorlagay keyin,*
*U manzilning nomi ko‘p ulug‘.*
*«Ona» deya atashar tayin,*
*Unda dil ham nurlarga to‘liq...*

*Manzil sari ot qo‘yar umr,*
*Ko‘rmaganing go‘zaldir har dam:*
*«Buvi» etib, so‘ngra kimgadir*
*Yetib kelar so‘nggi bekat ham...*

### UMIDLAR ZINASI

*Uzilgan sochimning tolasi*
*Jonsiz bir vujudga aylandi.*
*Orzular uyining bolasi*
*Qush bo‘lib uchishga shaylandi.*



*Bulutlar xayoli daryoni*
*Onalik baxtiga yor etdi.*
*Yulduzlar jamoli – oqshomni*
*Siqilgan ko‘ksini shod etdi.*

*Quyoshning ipakday qo‘llari,*
*Zaminning boshini siladi.*
*Oyning sutday oppoq nurlari,*
*Yerga zarlar sepadi.*

*Kunlarning halqasi umrimga*
*Zanjirdek ulashib boradi.*
*Umidlar zinasi ko‘ksimga*
*Orzular chirog‘in yoqadi.*

**Dilshoda SAIDOLIMOVA.**

---

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

**MUASSIS:** Samarqand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

*Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 457 nusxada chop etildi. Buyurtma 657. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2*

***Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.***

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
**BO‘LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:** A.SHERXOLOV.
**Navbatchi:** Y.MARQAYEV.
**Sahifalovchi:** B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda